

ICHKI ISHLAR ORGANLARI HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASIDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI BILAN HAMKORLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA USTUVOR YO'NALISHI

Ochilov Abdulaziz Alisherovich

IIV Akademiyasi kursanti 317 - guruh

Tillaxodjayev B.

“HPF” kafedrası katta o'qituvchisi Podpolkovnik

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11095698>

Annotatsiya: Huquqbuzarliklar profilaktikasida fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligini tashkil etish bo'yicha ilg'or xorijiy tajriba Hamkorlik masalalari to'g'risida olib borgan tadqiqotlar davomida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bilan MDH davlatlari va boshqa horijiy davlatlarning Ichki ishlar vazirliklari o'rtasida o'zaro hamkorlik aloqalari muntazam ravishda yo'lga qo'yilganligini o'rganib chiqilmoqda. Masalan Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlari faoliyat yuritib kelmoqda. Mazkur o'quv ta'lim muassasalarida yetuk va malakali kadrlar tayyorlab kelinmoqda.

Kalit so'zlar: Profilaktika, Fuqarolik jamiyati, Hamkorlik, Huquqbuzarlik, Jinoyatchilik Ijtimoiy Himoya, muayyan kriminogen vaziyat, siyosiy partiyalar.

Hamkorlik masalalari to'g'risida olib borgan tadqiqotlar davomida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bilan MDH davlatlari va boshqa horijiy davlatlarning Ichki ishlar vazirliklari o'rtasida o'zaro hamkorlik aloqalari muntazam ravishda yo'lga qo'yilganligini o'rganib chiqilmoqda. Masalan Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlari faoliyat yuritib kelmoqda. Mazkur o'quv ta'lim muassasalarida yetuk va malakali kadrlar tayyorlab kelinmoqda.

Qolaversa O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi bilan chet davlatlar oliy o'quv ta'lim muassasalari o'rtasida mustahkam hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan bo'lib, mazkur o'quv muassalarda bo'lajak Ichki ishlar organlari xodimlari egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini chet davlatlarida tahsil olayotgan kasbdoshlari bilan o'rtoqlashadilar.

«Jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'rnatilayotgan yangi mexanizmlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlashda ichki ishlar organlarining roli va ma'suliyatini yanada oshirish maqsadida Mahalla huquq tartibot maskani to'g'risida Nizom tasdiqlandi¹».

Unga ko'ra:

tuman (shahar) hokimlari har oyda mahalla huquq tartibot maskaniga rahbarlik qilayotgan profilaktika katta inspektori bilan shaxsan uchrashib, hududda jamoat xavfsizligini ta'minlash borasiida aniqlangan muammoli masalalarni hal etish choralari ko'radi;

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ички ишлар органларининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасидаги фаолиятини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча ташкилий чора тадбирлар тўғрисида”ги 2021 йил 2 апрелдаги ПҚ 5050 сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. –2021.

Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari har yarim yilda mahalla huquq tartibot maskaniga rahbarlik qilayotgan profilaktika katta inspektorining hududda jamoat xavfsizligini ta'minlash ahvoli bo'yicha hisobotini eshitishi tartib-tamoyili yo'ga qo'yildi.

Osiyo va Yevropa mintaqalarida joylashgan mamlakatlarda huquqbuzarliklar profilaktikasi, jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibi va xavfsizlikni ta'minlash o'zgacha. Ushbu sohada har bir davlat o'ziga xos tajribaga ega bo'lib, ularni o'rganish hamda yurtimiz jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tizimiga tatbiq etish bugunning dolzarb talablaridan biridir. Ma'muriy hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash borasida xorijiy davlatlar to'plagan tajribani o'rganish bu masalaga tizimli yondashuvni talab qiladi. Shu sababli, ko'zlangan maqsadga erishish uchun quyidagicha yondashish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz: Xorijiy davlatlar jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tizimlari. Har bir davlatning jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tizimi boshqa mamlakatlarnikidan muayyan xususiyati bilan ajralib turadi.

Xorijiy tajribalarga ko'ra Turkiyaning ichki xavfsizligi ta'minlash va jamoat tartibi (tinchligi)ni saqlash uchun ichki ishlar vazirligiga bo'ysunuvchi quyidagi huquq tartibot organlari faoliyat olib boradi².

Jandarma bosh Qo'mondonligi bu xavfsizlik va jamoat tartibini saqlash bo'yicha harbiylashtirilgan qurolli tashkilot hisoblanadi. Mazkur tashkilot «Jandarma tashkilotining vazifa va vakolatlari to'g'risi»dagi Qonun asosida tashkil qilingan bo'lib, ushbu hujjat asosida o'z faoliyatini olib boradi.

- 1) *Ma'muriy*: huquqbuzarliklar profilaktikasi, jinoyatlarning oldini olish; kontrabandalarni aniqlash va surishtiruv ishlarini olib borish; ahloq tuzatish muassasalarni qo'riqlash;
- 2) *Huquqiy*: huquqbuzarlarni aniqlash, qamoqqa olish va tashish (etap qilish), jinoyat ishlari bo'yicha dalillarni tegishli organlariga topshirish;
- 3) *Harbiy*: davlatning harbiy qonun va qoidalariga rioya qilish bo'yicha Oliy Qo'mondonlik buyruqlariga asosan vazifalarning amalga oshirilishini ta'minlaydi;
- 4) *Boshqa*: hukumat rasmiy hujjatlari, ya'ni qonun va qoidalarida belgilangan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

Turkiyaning Qirg'oq bo'yi qo'riqlash tizimiga quyidagi vazifalar yuklatilgan: a) suv hududi xavfsizligini ta'minlash; b) fuqarolar hayoti va mulklarining dengizdagi xavfsizligini ta'minlash; v) dengizda olib boriladigan kontrabanda faoliyatining oldini olish; g) Turkiya ma'muriyatlari hududida qidiruv va qutqaruv operatsiyalarini olib borish; d) dengiz suv sathi (akvatoriyasi) zararlanishining oldini olish.

Turkiya milliy politsiyasi quyidagi tamoyillarga asoslanib faoliyat olib boradi: Qonun ustuvorligi, inson huquqlari, demokratik politsiya, jamoatchilik tartibi va xavfsizligi, ijtimoiy tinchlik, professionallik, ozodlik va xavfsizlik bilan uyg'unlik, jinoyatlarning oldini olish va samarali politsiya faoliyati, kommunikativ politsiya falsafasi.

Turkiya milliy politsiyasi xizmatlari tizimi. Terrorizmga qarshi kurashish boshqarmasi; noqonuniy narkotiklarga qarshi kurashish boshqarmasi; transmilliy jinoyatlarning oldini olish boshqarmasi; kiberjinoyatchilik bilan kurashish boshqarmasi; uyushgan jinoyatchilikka qarshi

² Б.А.Матлюбов. Янгича ва мустақил фикрлайдиган малакали мутахассислар тайёрлаш йўлида // Постда. № 12. 17- март 2018 й. Б. – 4-5.

kurashish boshqarmasi; xorijlik politsiya xodimlarini o'qitish va malakasini oshirish boshqarmasi; tinchlikparvarlik operatsiyalarida qatnashish boshqarmasi.

References:

1. Mirziyoev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir / O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. – 2017. – 8 dek.;
2. Mirziyoev Sh.M. Tartib-intizom va mas'uliyatni kuchaytirish, jinoyatchilikning oldini olish muhitini mustahkamlash – huquqbuzarlik profilaktikasi samaradorligining asosiy omilidir (Xalq so'zi, 15.11.2017);
3. Mirziyoev Sh.M. 2017 yil 24-25 fevral kunlari Qashqadaryo viloyatiga tashrifi davomida o'tkazilgan uchrashuvda so'zlagan nutqi // Xalq so'zi. – 2017. – 28 fev.
4. Mirziyoev Sh.M. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi // Xalq so'zi. – 2017. – 20 sent.
5. Mirziyoev Sh.M. Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi // Xalq so'zi. – 2017. – 15 okt.
6. Mirziyoev Sh.M. 2017 yil 20 noyabr kuni o'tkazilgan jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olishda davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligiga bag'ishlangan yig'ilishda so'zlagan nutqi // Xalq so'zi. – 2017. – 21 noyab.
7. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. <https://www.lex.uz>.
8. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi <https://www.lex.uz>.
9. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi <https://www.lex.uz>.
10. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi <https://www.lex.uz>.
11. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi <https://www.lex.uz>.
12. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik-protsessual kodeksi <https://www.lex.uz>.
13. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonuni <https://www.lex.uz>.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi “Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF 6196 sonli/ <https://www.lex.uz>.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora tadbirlar to'g'risida ”gi 2021 yil 2 apreldagi PQ 5050 sonli qarori/ <https://www.lex.uz>.